Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi

Rahmdil Samariyalik



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
M. Maillot; Lazarus
Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2022 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.

“Ustoz! Abadiy hayotga ega bo’lish uchun nima qilishim kerak?” Bu savolni so’ragan kishi Tavrot tafsirchisi bo’lib, u Isoni sinamoqchi edi. Unga javoban Iso,
“Xudoning Qonunida bu haqida nima deyilgan?” deb so’radi.

“Xudoni va qo’shningizni seving deyilgan,” deb javob berdi u. “Lekin, mening qo’shnim kim?” so’radi u.

Using savoliga javoban Iso Quddus shahridan Yerixo shahriga boradigan yo'l orqali safarga chiqqan kishi haqida hikoya aytib berdi. U kishiga qaroqchilar hujum qilgan edi.

Qaroqchilar uning hamma narsasini, hatto egnidagi kiyimini ham tortib olishgandi. Qaroqchilar unga jiddiy jarohat yetkazib, yo'l bo'yida yarim o'lik holatida tashlab ketishgan edi.

Tasoddifan o'sha yo'ldan bir ruhoniy o'tayotgan edi. Balki u jarohatlangan kishiga yordam berar.
Yoq!
Ruhoniy u kishini qonga belangan holda ko'rib, yo'lning narigi tomonidan o'tib ketdi.

Tez orada bu yo'lda boshqa bir kishining oyoq tovushlari eshitildi. U Levi, ya'ni, Xudoning ma'badida ruhoniylarning yordamchisi edi.
Levi jarohatlandan kishining oldiga borib qaradi,
keyin esa yordam bermay
ketib qoldi.

Nihoyat Samariyalik bir kishi
shu yo'lgan yurib kelayotgan edi.
Yahudiylar Samariyaliklarni yomon
ko'rishar edi.

Isoning hikoyasiga quloq solayotlar
Samariyalik hikoyaning qahramoni
bo'lishini kutishmagan edi. Lekin
aynan u hikoya qahramoni
edi.
Samariyalik
uning
ahvolidan
xavotirlanib,
yordam berish uchun to'xtadi.

Samariyalik jarohatlangan kishining oldida o’tirdi, uning yaralariga malham qo’yib, bo’glab qo’ydi. Keyin esa uni eshagiga mindirib olib ketdi.

Samariyalik uni yo'l bo'yidagi mehmonxonaga olib borib, butun kechqurun unga g'amxo'rlik qildi.

Tongda Samariyalik mehmonxona
egasiga jarohatlangan kishi tuzalib
ketgunicha unga
g'amxo'rlik
qilish uchun
pul to'ladi.

Isoning hikoyasi shu yerda tugadi. Iso, “Xo’sh, jarohatlangan kishini qo’shnisi kim?” deb so’radi.

Tavrot tafsirchisi, “Uning qo’shnisi unga mehribonlik ko’rsatgan Samariyalik-da,” deb javob berdi.

Iso, “Boring, siz ham shunday qiling,” deb aytdi.
Yordamga muxtoj bo’lgan inson bizning qo’shnimizdir.
Muxtojlarga yordam berish, ularga sevgi ko’rsatishdir. Bu Xudoni xursand qiladi.

Rahmdil Samariyalik

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

…dan topilgan

Luqo 10-bob

“Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar.”
Zabur 119:130

Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16